

2008-YILDAGI JAHON MOLİYAVIY INQIROZI YANA DUNYO YUZINI KO'RISHI MUMKINMI?

Normatov Xudoyor,

Shomurotova Zulfiya,

Shuhratillayev Yusuf,

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabalari

Ilmiy rahbar: Bekmuradova Feruza (PhD),

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

2008-yilgi Jahon moliyaviy inqirozi nafaqat rivojlangan davlatlarga, balki butun dunyo iqtisodiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bozor iqtisodiyoti tarixida rekord darajadagi ishsizlik, inflyatsiya va valyutalarga ishonchsizlik kuzatildi. Oltin va neft narxlarining keskin oshishi bu holatning yaqqol misoli bo'ldi. Ushbu maqolada inqirozning sabablari va oqibatlari, shuningdek, 2008–2024-yillar davomidagi iqtisodiy holat, xususan kredit sohasidagi muammolar tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, kelajakda ham inqirozlar sodir bo'lishi mumkin, ammo ular 2008-yilgi kabi aniq bir qolipda bo'lishi ehtimoldan yiroq. Dunyo iqtisodiyoti hali ham turli shakldagi yangi inqirozlarga duch kelishi mumkin.

Kalit so'zlar: inflyatsiya, ipoteka obligatsiyalari, kredit defolt almashinuvlari, uy-joy bozori pufagi, retsessiya

Metodlar

Maqolada keltirilgan barcha statistik ma'lumotlar Xalqaro valyuta fondi, World bank, Wayback machine, “Экономист” jurnalidan, “Quantitive Finance” arxivlari

hamda xalqaro o'rindagi iqtisodchi va siyosatchilar taqdim etgan ma'lumotlardan olingan. Undan tashqari, maqolani tayyorlash davomida ma'lumotlarni yig'ib ularni tahlil qilish, taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili

2008-yilda bo'lib o'tgan bu inqiroz davlatlarning moliyaviy holatini ma'lum bir darajada yomonlashtirib qo'ygan. Bu esa barcha iqtisodchi va siyosatshunoslarni tahlil qilish va kerakli yechimlarni izlashga undagan faktor bo'lib xizmat qildi. Jumladan, Jorj Soros, Jozaf Stiglis, Kennet Rogoff va Karmen Reynxart inqirozning kelib chiqish sabablarini aniqlashga harakat qilishgan. Jozaf.Sning "Stiglitz Report" nomli asarida sabablar tahlili va inqirozdan chiqish uchun takliflar taqdim etilgan. Kelib chiqish sabablariga qiziqish bildirgan va ular bo'yicha tahliliy ishlarni olib borgan olimlar soni katta guruhni tashkil qilgan. Bularga Kennet Rogoff, Karmen.R va ularning "This Time is Different" nomli kitobi misol bo'la oladi. Ushbu asarda nafaqat inqiroz haqida, balki hukumatning defoltlari, bank vahimalari va inflyatsiyaning keskin ko'tarilishining keng qamrovli ko'rinishi yoritilgan. Fransuz iqtisodchisi bo'lgan va XVF da taqdiqot bo'limi boshlig'i lavozimida ish olib borgan Olivye Blanshar inqirozdan chiqish yo'llari va undan keyingi holatni tahlil qilgan. U o'zining "Tizimdagi yoriqlar" nomli maqolasida "shikastlangan global iqtisodiyot remonti" ta'rifi ostida holat haqida to'liq ma'lumotlarni keltigan. Uning o'tkazgan tadqiqot ishlari Didye Sornet va Rayana Vudard kabi boshqa iqtisodchilarning keyingi olib borgan ishlarida asos bo'lib xizmat qilgan holda vaziyat haqida tushuncha yetkazib bera olgan. Iqtisodchi Jorj Soros ning bildirgan fikricha inqirozning ikkinchi to'liqini bo'lishi mumkin edi. Yuqorida keltirilgan olimlar bo'lib o'tgan inqirozning turli jihatlarini tahlil qilishga e'tiborlarini qaratgan bo'lishsa, Dr. Doom ismi bilan mashhur bo'lgan iqtisodchi Nuriel Rubini inqirozni bashorat qilgan . U jahon fond bozori yilning ikkinchi yarmida 10% ga tushishini tan olgan edi . Rubinining Dr. Doom ismi bilan atalishi ham aynan mana shu inqirozga bergan bashoratidan so'ng boshlangan. Inqiroz tahlili bilan faqatgina bir

guruh iqtisodchilar emas, balki XVF va boshqa xalqaro darajadagi banklar ham shug'ullanishgan.

Kirish

Moliyaviy inqirozlar insoniyat tarixida muntazam ravishda uchrab kelgan bo'lib, ular iqtisodiy o'sish jarayonlarini izdan chiqaradi, moliyaviy tarafdin inqirozga olib keladi va millionlab mamlakatlarning va insonlarning hayotiga salbiy ta'sir qiladi. 2008-yilda yuzaga kelgan jahon moliyaviy inqiroz ham aynan shunday keng ko'lamli iqtisodiy beqarorlik holatlaridan biri bo'lib, dunyo iqtisodiyotini og'ir yo'qotishlarga olib keldi. Ushbu inqiroz AQShning ipoteka bozoridagi muammolar bilan boshlangan, keyingi qisqa vaqt ichida yirik banklar, moliyaviy institutlar va butun jahon iqtisodiyotga ta'sir qari xavfli investitsiyalar va tartibga solinmagan kredit bozorining mavjudligi ushbu inqirozning chuqurlashishiga sabab bo'ldi. Bu moliyaviy inqiroz butun dunyo iqtisodiyotiga ulkan zarba berdi. Bankrot bo'lgan yirik kompaniyalar, ishsizlikning oshishi va jahon bozorlardagi keskin pasayish – bularning barchasi o'sha davrning achchiq saboqlari edi. Ammo bugungi kunda ham shunday inqiroz yuz berishi mumkinmi?

Ushbu maqolada 2008-yil moliyaviy inqirozining asosiy sabablari va uning global ta'sirini tahlil qilamiz. Shuningdek, bugungi kundagi ipoteka kreditlari bozori va xalqaro iqtisodiyotdagi muammoli yo'nalishlar orqali shunday inqirozning qayta yuz berish ehtimolini baholaymiz.

Inqirozning kelib chiqish sabablari

2008-yilgi Buyuk Retsessiya tarixga subprime ipoteka kreditlari haddan tashqari ko'p berilishi, moliyaviy qoidalarni yumshatilishi hamda bir qancha omillar tufayli oqibatlari va ko'lami jihatidan 1930-yillardagi Buyuk depressiya bilan taqqoslanishi mumkin bo'lgan ulkan voqea sifatida kirdi. Ushbu iqtisodiy inqirozni tushunish uchun unga turtki bo'lgan sabablarni birma-bir o'rganish zarur.

- Uy-joy bozoridagi pufakcha va subprime ipoteka kreditlari

Moliyaviy inqiroz uy-joy bozoridagi pufakcha bilan boshlandi. Past foiz stavkalari va ipoteka kreditlariga yuqori talab uy-joy narxlarining keskin oshishiga sabab bo'ldi. 2000–2003 yillarda AQSh Federal Rezerv Sistemi iqtisodiyotni rag'batlantirish maqsadida foiz stavkalarini 6,5% dan 1% ga tushirdi. Natijada ko'plab kreditlar berildi, biroq 2004-yildan boshlab foiz stavkalari yana oshirildi.

Kreditlar bo'yicha to'lovni bajara olmaganlar uylaridan mahrum bo'ldi, banklar esa ko'plab uylarga ega bo'lib qoldi. 2006-yilda uy-joy narxlari pasayib, ko'plab qarzdorlar kreditni to'lamaslikni tanladi. Ayniqsa, “subprime” kreditlar — to'lov qobiliyati past bo'lganlarga berilgan ipotekalar — inqirozni kuchaytirdi.

- Ipoteka obligatsiyalari (MBS) va kredit defolt almashinuvlari (CDS)

Ipoteka kreditlari ipoteka obligatsiyalariga aylantirilib, dunyo bo'ylab investorlarga sotildi. Uy-joy narxlari pasayganidan so'ng, obligatsiyalarning qiymati ham tushdi va yirik banklar inqirozga uchradi. 2000-yillarda investorlar kredit defolt almashinuvlarini (CDS) sug'urta qilish uchun keng qo'llay boshladi. Biroq, bu tizim yaxshi tartibga solinmagan va kompensatsiya to'lanmaslik xavfi mavjud edi. 2008-yil boshida American International Group kompaniyasi o'zining CDS shartnomalarini bajara olmay, inqirozga sabab bo'ldi.

- O'zgaruvchan foiz stavkali kreditlarning keng qo'llanilishi

Bu kredit turi dastlab ancha past to'lovlarda amalga oshirilib, vaqt o'tishi bilan nisbatan yuqori foiz stavkasida to'lanadi. 2000-yilning boshlarida ushbu kredit yomon oqibatlarga olib kelmaganligi tufayli xavf-xatarsiz deb hisoblangan. Agar kredit oluvchilar to'lay olmagan taqdirda, ular uylarini foyda uchun sotishlari mumkin edi, ammo narxlarning pasayib ketganligi vaziyatni yomonlashishiga sabab bo'ldi.

- Tartibga solish tizimidagi o'zgarishlar

1980–2000-yillardagi iqtisodiy cheklovlarning yumshatilishi va tavakkalchilikka keng yo'l ochgan qonunlar jahon moliyaviy inqirozining yuzaga kelishiga katta hissa qo'shdi. 1999-yilda GLBA qonuni tijorat va investitsiya banklari o'rtasidagi chegarani bekor qildi. 2004-yilda esa SEC yirik banklarga oldingidan ko'ra ancha ko'p miqdorda qarz olishga ruxsat berdi.

2008-yilgi inqirozning asosiy sabablari sifatida subprime ipoteka kreditlari, uy narxlariga haddan tashqari ishonch, moliyaviy innovatsiyalar va aholining ortib borayotgan qarzdorligini ko'rsatish mumkin. Natijada, bu inqiroz AQSh bilan birga butun dunyo, ayniqsa Yevropa iqtisodiyotiga ham jiddiy zarar yetkazdi.

Inqirozning dunyo bo'ylab ta'siri

Xalqaro valyuta fondi tomonidan, inqiroz paytidan o'n yillar o'tgan bo'lsada uning ta'sirlari hattoki 2018-yillargacha davom etgani aytiladi. Davlatlar ancha yillargacha iqtisodiy holatini tiklay olmagan. Asosiy oqibatlariga investitsiyalar qisqarishi, davlatning moliyaviy ahvoli va tug'ilish pastligi, davlat qarzlari, inflyatsiyaning oshishi, ishsizlik darajasining ortishi kiradi. XVF inqirozdan davlatlar ko'rgan zarar miqdorini e'lon qilgan. Bunga ko'ra keltirilgan zarar hajmi 1 trillion dollarni tashkil qildi. 2008 yil noyabrda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra AQSh barqarorlikni ta'minlash maqsadida 7 trillion dollar sarf qilgan. Quyida inqiroz olib kelgan oqibatlar haqida to'liq ma'lumotlar taqdim etilgan:

- AQSh va Yevropada retsessiya. Inqiroz oqibatida AQSh va Yevropada iqtisodiy pasayish 2009-yilning ikkinchi yarmida yakunlangan. Biroq Yevropa davlatlarida 2011-yilda qaytadan boshlangan retsessiya 2013-yilgacha davom etgan va bu uning tarixida eng uzun tushish davri deb baholangan. Retssesiyaning iqtisodchilar iqtisodiy faollikning pasayishi bilan ifodalashadi va u davlat YaIMining ikki kvartalga keskin tushishi bilan baholanadi.

- Ishsizlikning iqtisodiyot tarixidagi rekord darajasi. XVF baholashiga ko'ra, 2007-yildan boshlab butun dunyoda ishsizlar soni 30 millionga ortib, 210 millionga

yetgan. Kredit mexanizmlarining to'xtashi ishsizlikni keltirib chiqardi va bozordagi talabning pasayishiga olib keldi. Bu esa savdoning susayishiga va ishlab chiqaruvchilarda muammolarni yuzaga keltirdi. Ishlab chiqaruvchilar xarajatlarni qisqartirib, ishchi kuchini kamaytirishga majbur bo'ldilar, bu talabning yanada tushishiga olib keldi. 2004-2007 yillardagi xalqaro savdoning o'rtacha o'sish ko'rsatkichi 8,74% bo'lsa, 2008-yilda bu faqat 1,83% ni tashkil etdi, 2009 yilda esa savdo 2,3% ga qisqardi.

- Dunyo tarixidaagi eng yuqori inflyatsiya. 2008-yilning fevral oyida inflyatsiya darajasi rekord darajasiga yetdi. Jorj Sorosning ta'kidlashicha, valyutalarga bo'lgan ishonchsizlik oqibatida ularni real aktivlarga aylantirishga bo'lgan tendentsiya oshgan. Bu esa birinchi o'rinda xomashyo sektoriga ta'sir ko'rsatgan. Buni oltin va neft misolida ko'rish mumkin.

2- grafik .

2008-yilning birinchi yarmida neft narxlari ko'tarilib ketadi. Buning asosiy sabablari, investorlarning taklif kamayishi bo'yicha xavotirlari tufayli, faol ravishda sarmoya kiritganligidadir. Xomashyoga bo'lgan tendensiya oshib, metall, don va boshqa mahsulotlar narxi o'sganida neft narxini ham oldinga turtib yubordi . Shu yilning ikkinchi yarmida esa retsessiya hisobiga yoqilg'i va energiyaga bo'lgan talab tushib neft narxlarini tushurib yubordi. Bunga Lehman Brothers bankining bankroti ham sabab bo'lgan. Yilning oxiriga kelib bu narxlar iyul oyi bilan solishtirganda 4 karra pasayib ketdi.

Ipoteka kreditlari bo'yicha hozirda dunyodagi holat

“Orzuyim oddiy – faqatgina o'zimga tegishli kichik uyim bo'lishi”, — deydi Dakkadan 31 yoshli Sakib Ahmad.

Arzon uy-joy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi, kambag'allikni kamaytiradi, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi va moliya tizimini kengaytiradi. Uy – sog'liq, ta'lim va barqarorlik uchun asosdir. Ammo ko'pchilik moliyaviy imkoniyatsizlik sababli uy

sotib olish imkonidan mahrum. Aynan shu muammo ipoteka tizimining shakllanishiga olib keldi.

2008-yilgi moliyaviy inqiroz AQSh ipoteka bozoridan boshlangan bo'lsa-da, butun dunyoga ta'sir ko'rsatdi. Quyida inqirozdan zarar ko'rgan mamlakatlarning hozirgi iqtisodiy holati va ipoteka bozorining tiklanishi ko'rib chiqiladi.

- AQSh: Inqirozdan so'ng hukumat keng choralar ko'rди, iqtisodiyot barqaror o'sish ko'rsatmoqda, ishsizlik pasaygan, ipoteka bozori o'smoqda. Ammo ba'zi hududlarda uy-joy narxlari yuqori bo'lib qolmoqda, bu yangi xaridorlar uchun muammo tug'dirishi mumkin.

- Buyuk Britaniya: Inqirozdan jiddiy zarar ko'rgan, ammo iqtisodiyotni tikladi. Ipoteka bozori barqaror, foiz stavkalari past, bu uy-joy xaridorlari uchun qulay.

- Germaniya: Inqiroz davrida barqarorlikni saqladi, hozirgi kunda Yevropadagi eng kuchli iqtisodiyotlardan biri, ipoteka bozori o'sishda davom etmoqda.

Umuman olganda, yirik davlatlar 2008-yilgi inqirozdan so'ng iqtisodiyoti va ipoteka bozorlari tiklandi, hukumat choralar va islohotlar bu tiklanishda muhim rol o'ynadi.

Xalqaro iqtisodiyotning boshqa jabhalaridagi hozirgi holat va muammoli yo'nalishlar

2008-yilda jahon maydonida yuz bergan moliyaviy inqiroz butun dunyoning iqtisodiyotiga jiddiy zarar yetkazdi. Hozirgi kunda ham jahon iqtisodiyoti bir nechta muammoli yo'nalishlarga duch kelmoqda. Jahon iqtisodiyotning hozirgi holatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2025-yilda butun dunyoda iqtisodiy o'sish sekinlashishi taxmin qilinmoqda. OECD taqdim etgan so'nggi ma'lumotlariga ko'ra, iqtisodiy o'sish sur'atining pasayishi, davom etayotgan inflyatsiya va noaniq siyosiy muhit dunyo iqtisodiyotiga muayyan xavflarni yuzaga keltirmoqda. Prognozlarga tayanadigan bo'lsak, global iqtisodiy o'sish 2025-yilda 3.1% ga, 2026-yilda esa 3.0% ga pasayishi

kutilmoqda. Ammo, bu pasayish barcha mamlakatlar va mintaqalarga bir xilda ta'sir qilmaydi. Ayrim mamlakatlarda iqtisodiyot barqaror saqlanayotgan bo'lsa, boshqalarida iqtisodiy beqarorlik kuchayib bormoqda. Iqtisodiy o'sish sur'ati bir qancha omillar natijasida sekinlashmoqda, jumladan, markaziy banklarning yuqori foiz stavkalari, savdo siyosatidagi noaniqliklar hamda geosiyosiy keskinliklar iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, keyingi yillarda iqtisodiy siyosatni har qanday vaziyatga moslashuvchan qilib yuritish va innovatsion yondashuvlarni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro savdoning hozirgi holatiga yuzlanadigan bo'lsak, 2025-yil global savdo barqaror holatda boshlandi, biroq yangi muammolar paydo bo'lishda davom etmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va Taraqqiyot Konferensiyasining (UNCTAD) hisobotiga ko'ra, xalqaro savdo muhiti shiddat bilan o'zgarib bormoqda. 2024-yilda jahon savdosi tarixiy o'sishga erishib, umumiy hajmi 33 trillion dollarga yetdi. Bu 2023-yilga nisbatan 3.7% o'sish demakdir. Bunday yuksalish asosan rivojlanayotgan davlatlar va xizmatlar sektoridagi yuqori faollik natijasida yuzaga keldi. Biroq, kelgusi yillarga nazar tashlansa, savdoda muvozanatsizlik, savdo siyosatlarining o'zgarishi va geosiyosiy keskinliklar kabi yangi tahdidlar ham vujudga kelmoqda. Kelgusi yillarda global savdoning barqarorligini ta'minlash uchun davlatlararo hamkorlikni kuchaytirishi va o'z mamlakatlari uchun yangi iqtisodiy rejalar va strategiyalar yaratishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda Rossiya—Ukraina mojarosi xalqaro tuzilma va munosabatlarni 2025-yilda sezilarli darajada o'zgartirdi. AQSh siyosati o'z manfaatlarini hisobga olib raqobatbardosh yondashuvni qo'llab-quvvatlasa-da, jahon miqyosida geosiyosiy ziddiyatlar ortmoqda. Energetika va iqlim o'zgarishi global siyosatdagi muhim masalalarga aylangan. Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash samarali olib borilmayapti, ammo Rossiya tomonidan Ukrainaga bostirib kirish energiya narxlarining keskin oshishiga olib kelib, ekologik toza energiya manbalariga o'tish jarayonini tezlashtirishi mumkin. AQShda qabul qilingan Inflatsiyani kamaytirish to'g'risidagi qonun qayta

tiklanuvchi energiya manbalariga katta imtiyozlar va investitsiya imkoniyatlarini taqdim etmoqda.

Xulosa

Ipoteka kredit siyosatining noto'g'ri amalga oshirilganligi hamda davlat moliyaviy tizimni haddan tashqari nazoratsiz qoldirishi shuningdek boshqa bir qancha omillar natijasida yuzaga kelgan Buyuk Retsessiya yirik banklar va kompaniyalarning inqirozi, davlat qarzining ortishi, qashshoqlik, inflyatsiyaning ko'tarilishi va eksportning kamayishiga sabab bo'lib, yillar davomida ta'sirini yo'qotmadi. Davlat bu inqirozdan qutulishda asosiy va muhim ishlarni amalga oshirdi. AQShning pul-kredit siyosatini belgilovchi tashkilot - Federal Rezerv Tizimini boshqargan Ben Bernanke holatni yaxshilash maqsadida foiz stavkalarini pasaytirish, banklarga qo'shimcha mablag'lar kiritish kabi islohotlarni chiqardi.

Pul-kredit tizimini hozirgi holat bilan solishtirganda bir qancha muammolar bo'lsada, 2008-yil holatiga nisbatan vaziyat barqaror hisoblanadi. Shuning uchun, kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan inqirozni boshqa jabhalarda kuzatish mumkin. Umuman olganda, qaysi sohada inqiroz bo'lishidan qat'iy nazar, oqibatida yuzaga keladigan falokat, insoniyatning hayotiga ulkan xavf soladi hamda mamlakatning rivojlanishiga bolta uradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baily, M. N., & Litan, R. E. (2016). Origins of the crisis. Brookings Institution. Retrieved from https://www.brookings.edu/wp-content/uploads/2016/06/11_origins_crisis_baily_litan.pdf
2. Federal Deposit Insurance Corporation. (n.d.). The crisis and response. Retrieved from <https://www.fdic.gov/bank/historical/crisis/chap1.pdf>
3. Federal Reserve. (n.d.). Monetary policy: Open market operations. Retrieved from <https://www.federalreserve.gov/monetarypolicy/openmarket.htm>

4. Fitch Ratings. (2023). 2023 Global housing mortgage outlook: Mid-year update. Retrieved from <https://www.fitchratings.com/research/structured-finance/2023-global-housing-mortgage-outlook-mid-year-update-22-06-2023>
5. History.com. (n.d.). Great Depression history. Retrieved from <https://www.history.com/articles/great-depression-history>
6. History.com. (n.d.). Recession history. Retrieved from <https://www.history.com/articles/recession>
7. Investopedia. (n.d.). Credit default swap (CDS). Retrieved from <https://www.investopedia.com/terms/c/creditdefaultswap.asp>
8. Investopedia. (n.d.). Investment bubble definition. Retrieved from <https://www.investopedia.com/articles/economics/09/investment-bubble.asp>
9. Investopedia. (n.d.). Subprime mortgage crisis of 2008. Retrieved from <https://www.investopedia.com/articles/economics/09/subprime-market-2008.asp>
10. Princeton University Press. (n.d.). This time is different. Retrieved from <https://press.princeton.edu/books/paperback/9780691152646/this-time-is-different>
11. U.S. Department of Housing and Urban Development. (2006). Quarterly housing market summary. Retrieved from https://www.huduser.gov/periodicals/ushmc/winter06/q406_summary.pdf
12. World Bank. (2024). Strategic approach in South Asia's emerging markets in overcoming barriers in mortgage lending. Retrieved from <https://www.worldbank.org/en/news/feature/2024/06/15/world-bank-groups-strategic-approach-in-south-asias-emerging-markets-in-overcoming-barriers-in-mortgage-lending>

13. World Bank. (2008). Thoughts on globalization and the global financial crisis. Retrieved from <https://www.worldbank.org/en/news/speech/2008/11/13/thoughts-on-globalization-and-the-global-financial-crisis>